

**“O‘z kimyosanoat” AJ va
Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi o‘rtasida
hamkorlik to‘g‘risida**

M E M O R A N D U M

**“O‘z kimyosanoat” AJ va Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi
o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida
M E M O R A N D U M**

Muqaddima

“O‘z kimyosanoat” AJ (keyingi o‘rinlarda “Jamiyat” deb yuritiladi) va Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda “Qo‘mita” deb yuritiladi), birgalikda Tomonlar deb nomlanuvchilar:

O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va Tomonlarning vakolatlari doirasida ular o‘rtasida konstruktiv va o‘zaro manfaatli aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirish maqsadida quyidagilar to‘g‘risida kelishib oldilar:

I. Hamkorlik maqsadi

Tomonlar ushbu Memorandum qoidalari hamda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qilib, kimyo sanoati sohasidagi islohotlar ijrosini ta‘minlashga qaratilgan amaliy tadbirlarda ishtirok etish hamda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi roli va faolligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, ijtimoiy faol ayollar qatlamini kengaytirish va ular yordamida yurtimizda kimyo sanoati tarmog‘ini yanada rivojlantirish va diversifikatsiya qilish, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishda yosh xotin-qizlarning ulushini oshirish, mazkur sohada o‘zaro tajriba almashish masalalarida o‘zlarining vakolatlari doirasida hurmat asosida ikki tomonlama manfaatli hamkorlikni rivojlantirib, qo‘llab-quvvatlaydilar.

II. Hamkorlik yo‘nalishlari

Memorandum doirasida Tomonlar quyidagi yo‘nalishlarda hamkorlikni rivojlantiradi:

– og‘ir sanoatda faoliyat olib borayotgan xotin-qizlarning muammolarini ijobiy hal etish, ularning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha hamkorlikda qonun va qonunosti hujjatlarini ishlab chiqish;

– tomonlar o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishlar bo‘yicha o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

– kimyo ta‘limini rivojlantirish va bosqichma-bosqich ta‘lim-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish;

– o‘sib kelayotgan yosh avlodning kimyoga, bebaho minerallarga bo‘lgan qiziqishini yuksaltirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda ularni hayotga tatbiq etish;

– sanoat xavfsizligini ta‘minlash hamda mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

– yoshlar va ayollarning og‘ir sanoatga bo‘lgan qarashlari va ma‘naviyatini yuksaltirishga qaratilgan turli ko‘rinishdagi tadbirlar tashkil etish;

– aholining sog‘ligini saqlash va tabiatdan oqilona foydalanish sohasidagi qonunchilik yangiliklarini muntazam yoritib borish;

– yoshlarni tabiat resurslariga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish ruhida tarbiyalashga qaratilgan ko‘rsatuvlarni tashkil etish.

Tomonlar o‘zaro manfaatli bo‘lgan boshqa yo‘nalishlarda ham hamkorlikni rivojlantirishlari mumkin.

III. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

Tomonlar quyidagi huquq va majburiyatlarga ega:

– aholining, ayniqsa, og‘ir sanoatdagi xotin-qizlarning salomatligini muhofaza qilish, ular o‘rtasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, o‘zaro hamkorlikda turli masalalar bo‘yicha respublika va xalqaro konferensiyalar, seminar-treninglar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

– hamkorlikda turli tadbirlar tashkil etish, tomonlarning imkoniyatidan kelib chiqib, alohida shartnomalar asosida moliyaviy jihatdan ko‘maklashish;

– bir Tomon ikkinchi Tomondan olingan yoki ushbu Memorandum doirasidagi hamkorlik jarayonida ishlab chiqilgan axborotlarni ikkinchi Tomonning yozma rozilgisiz uchinchi shaxslarga taqdim etmaslik majburiyatini oladi;

– Jamiyat va Qo‘mita tomonidan ishlab chiqilgan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida o‘zaro hamkorlikda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasidagi bandlarni amalga oshiradi.

IV. Memorandumga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish tartibi

Tomonlarning o‘zaro kelishuvi asosida ushbu Memorandumga ilova sifatida yozma shaklda rasmiylashtiriladigan va uning ajralmas qismi hisoblanadigan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

V. Yakuniy qoida

Mazkur memorandum asosida Qo‘mita va Jamiyatning quyi tashkilotlari hamkorlikni amalga oshiradi.

Ushbu Memorandum imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va besh yil muddatga amal qiladi.

9. Mazkur Memorandumning harakati Tomonlardan birining tashabbusi bilan istalgan vaqtda ikkinchi Tomonning 1 (bir) oy oldindan yozma ravishdagi ogohlantirish arizasi orqali to‘xtatilishi mumkin.

10. Ushbu Memorandum bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan ikki nusxada, o‘zbek tilida tuzildi.

“O‘zkimyosanoat” AJ
boshqaruvi raisi v.b.

T. Muxamedjanov

1-sentabr 2024-y.

Oila va xotin-qizlar
qo‘mitasi raisi

O. Parpibayeva

1-sentabr 2024 y.